



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 йил «27» декабрь

VI-50-106-7-93-K/21

Булунғур туман ҳокимлиги

Bulung'ur tuman Adliya bo'limi tomonidan 2021-yilning 9 oy davomida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5415-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3666-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashining L sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Adliya bo'limi boshlig'i A.Kuylanovning tuman Adliya bo'limining 2021-yilning 9 oy davomida amalga oshirilgan ishlari to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Adliya bo'limi (A.Kuylanov)ga:

keng ko'lamdagi islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qabul qilinayotgan qaror va qonunlarning mazmun-mohiyati bilan barcha turdagi korxonalar va tashkilot xodimlariga, aholiga tanishtirish, hamda ularni amaliyotda qo'llanishiga ko'maklashish va nazorat qilish choralari belgilasin;

“Prezident qarorlari-hayotda va nazoratda” degan mavzuda “Bulung'ur hayoti” gazetasi (G'.O'rolov) alohida rukn tashkil etsin va unda adliya bo'limi tomonidan olib borilayotgan targ'ibot, tushuntirish ishlarini keng yoritish tavsiya etilsin;

aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish madaniyatini shakllantirish bo'yicha tizimli ishlar belgilash;

tumandagi bo'lim va tashkilotlarda qabul qilinayotgan huquqiy me'yoriy-hujjatlarni qo'llash masalalari bo'yicha huquqiy maslahatlar amaliyotiga muntazam e'tibor qaratish;

tuman hokimligida qabul qilinadigan qaror va farmoyishlarda mavjud qonun buzilish holatlari, hujjatlarda uchraydigan kamchiliklar yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqib, xodimlar ishtirokida muntazam ravishda seminar o'tkazish tizimini yo'lga qo'yish;

davlat organlari va tashkilotlarning tuman tuzilmalarining qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etish faoliyatiga uslubiy rahbarlik qilish va muvofiqlashtirish;

3. Tuman Adliya bo'limi (A.Kuylanov) tumandagi sektorlar rahbarlari, tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi (B.Bosimov), tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi (F.Xotamov), tuman Xalq ta'limi bo'limi (Z.Aliqulova) bilan birgalikda:

muntazam qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini ijrochilarga yetkazish, aholining huquqiy savodsizligiga barham berish borasida, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va sud idoralari bilan hamkorlikda chora-tadbirlarni amalga oshirish;

doimiy ravishda tumandagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqa davlat organlari hamda tashkilotlarida Mehnat qonunchiligiga, xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi talablariga rioya qilish, xodimlarni rag'batlantirish va amalga oshirilgan ishlarni muntazam o'rganish, tahlil qilish choralarini ko'rish;

bir oy muddatda davlat organlari va tashkilotlarining kadrlar bo'limi xodimlarining ishlari holatini monitoring qilish, shuningdek, ularning yuridik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va metodik ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

3. Tumandagi barcha bo'lim va tashkilotlar rahbarlariga:

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni asosida kelib tushgan barcha turdagi murojaatlarga o'z vaqtida javob xati yuborishini ta'minlash;

qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlarda mavjud qonun buzilish holatlari bo'yicha tuman adliya bo'limi tomonidan yuborilgan taqdimnomalari hamda tavsiyalarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash vazifalari topshirilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (T.Radjabov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi v.v.b



N.Mamadiyarova